

Aziz va yagonamsan, jonajon O'zbekistonim!**Tong yulduzi**Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!N:37 (67202)
2018-yil 10-sentabr

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

**Orzular
ushalgan kun**

Erta tong! Maktab hovlisi bayramona ruhda bezatilgan. «Bilimlar kuni» tadbiriga yig'ilgan ustoz va murabbiylar, o'quvchilar hamda ota-onalar xursandchiligining cheki yo'q. Ayniqsa, qutlug' dargoh ostonasiga ilk bor qadam qo'ygan 1-sinf o'quvchilarining yuzko'zidagi beg'ubor hayajonni hech nimga qiyoslab bo'lmaydi.

(Davomi **2**-betda)**A'LOCHI QIZ
BO'LAMAN**

Poytaxtimizning Mirobod tumanidagi 110-umumta'lim maktabining 1-sinfiga borgan Mastona Yunusova Prezident sovg'asini qo'liga hayrat bilan olar ekan:

- Ustoz, Prezidentimiz meni taniydilarmi? - deya savol berdi.

- Albatta, Yurtboshimiz hammani, har bir bolani o'z farzandlari deb biladilar! - deya javob berdi ustoz.

- Ur-re, qanday yaxshi, endi men bu o'quv qurollarim-u kitoblarimni mazza qilib ishlataman va a'lochi qiz bo'laman, - dedi Mastona quvonchi ichiga sig'may.

**HARAKAT
MUVAFFAQIYATDIR**

El uchun ter to'kka agar odamsod,
Bir mur el ichra nomi bo'lar yod.

Tong
yulduzi

HARAKAT MUVAFFAQIYATDIR

Respublikamizning barcha ta'lim muassasalarida yangi o'quv yili boshlandi. Yozgi ta'tilda qardron maskanini sog'ingan o'quvchilar qo'llarida hurmat-ehitrom ramzi bo'lgan guldastalar bilan bayramona bezatilgan maktablari tomon yo'l olishdi. Ularni ustozlari cheksiz hayajon bilan kutib oldi.



ORZULAR USHALGAN KUN

(Davomi. Boshi 1-betda)

Jajji o'g'il-qizlar qalbida cheksiz orzular, qo'llarida chiroyli guldastalar bilan tadbir boshlanishini intiqlik bilan kutmoqda...

Poytaxtimizning Mirobod tumanidagi 31-umumta'lim maktabida «Bilimlar kuni» ko'tarinki ruhda bo'lib o'tdi. Dastlab maktab direktori Nigora Alimova barcha o'quvchilarni yangi o'quv yili boshlanishi bilan samimiy qutlab, ularga mashaqqatli ilim yo'lida omad va zafarlar tiladi. So'ng, ushbu bilim dargohini tamomlagan, hozirgi kunda yurtimizning turli jabhalarida samarali faoliyat yuritayotgan sobiq o'quvchilar so'zga chiqib, barcha o'g'il-qizlarni chuqur bilim olishga, mehribon ustozlarning so'zlariga quloq tutishga, o'z iste'dodlarini to'la namoyon etishga undadi.

– Bugungi yoshlarga havasim keladi, – deydi 1-«Ye» sinf rahbari Irina Vilgelmovna. – Boisi, davlatimiz tomonidan ta'lim sohasiga qaratilayotgan yuksak e'tibor natijasida farzandlarimiz orasidan chinakam iste'dod egalari yetishib chiqmoqda. Bugungi tadbirda o'quvchilarning yuz-ko'zidagi bilim olishga bo'lgan shijoat va intilishni ko'rib, kelajagimiz ishonchli qo'llarda ekaniga yana bir bor amin bo'ldim.

Yangi o'quv yili «Aziz va yagonamsan, jonajon O'zbekiston!» shiori ostida «Mustaqillik darsi» bilan boshlandi. Ustoz Irina Vilgelmovna o'quvchilarga Istiqlol bayrami, mustaqillik bunyodkorlari haqida to'liqlanib so'zlab berdi.

– Prezidentimiz sovg'asi menga juda yoqdi. Kelajakda harbiy bo'lib, ona Vatanimni yovlardan qo'riqlayman, – deydi 1-«Ye» sinf o'quvchisi Zabihullo Ibrohimjonov.

Sa'dullo TURSUNOV

«Bilimlar kuni» Vatani, tinchlik, do'stlikni ulug'lovchi she'r va qo'shiqlar ijro etildi. So'ng, 1-sinf o'quvchilari Prezident sovg'alari tayyorlab qo'yilgan shinam sinf xonalariga yo'l oldilar...

Bu yil O'zbekiston Xalq ta'limi vaziri Sherzod Shermatov barcha vazirlik va idoralar rahbarlariga 5-sentabr kuni o'zlar o'qigan maktabga borib, yangi o'quv yili boshlanishi munosabati bilan o'tkaziladigan tadbirda ishtirok etishlarini

hamda joylardagi hokimlar tomonidan ushbu taklif ijobiy qabul qilinib, shu kuni maktablardagi

mov rahbarlik qilgan mana shu maktabda ta'lim olganman, – dedi Xalq ta'limi vaziri. – Maktabni

tamomlagach, AQSH-da tahsil oldim. Bugun Prezidentimiz tomonidan farzandlarimizni chuqur bilim olishlari uchun barcha sharoitlar yaratib berilmoqda. Quvonarlisi, yuksak g'amxo'rlik va e'tibor sabab o'zbek yoshlari bir necha tillarda bemaol so'zlasha oladi. O'zim ham AQSH, Kanada, Yaponiya, Koreya davlatlarida bo'lganimda, til bilgan inson katta muvaffaqiyatlarga erishishi



tadbirlarda faol qatnashdilar.

Poytaxtimizning Olmazor tumanidagi 22-umumta'lim maktabi jamoasi ota-onalar, mehnat faxriylari, mahalla fuqarolar yig'ini raislari,

mumkinligini chuqur anglaganman. Agar yoshlar bilim olishga chin dildan intilsa, hayotda katta yutuqlarga erishishi tayin.

– Aziz o'quvchilar, sizlarga bir tilagim bor, – deya gap boshladi Qahramon Oripov. – Ustozlarni hurmat qilib, o'z ustingizda tinmay izlansangiz, albatta, maqsadlaringizga erishasiz. Buning uchun chet tillarini puxta bilish talab qilinadi. Bugun qanday muvaffaqiyatlarga erishgan bo'lsam, eng avvalo, ustozlarimdan minnatdorman.

Poytaxtimizning Olmazor tumanidagi 224-umumta'lim maktabida ham ushbu tadbir ko'tarinki kayfiyatda tashkil etildi. Ushbu maktabda ta'lim olgan bir guruh faxriy o'qituvchilar, yozuvchi va shoirlar faqat puxta bilim olib, ustozlarni hurmat qilib, el ichida obro'-e'tibor qozonishganini hayotiy misollar yordamida tushuntirib berishdi.

Shundan so'ng, o'quvchilarga «Aziz va yagonamsan, jonajon O'zbekiston!» shiori ostida Mustaqillik darsi o'tildi.

Nodira NAZAROVA

VATAN

Gulla, yashna hur diyorum,
Tuproqlaring dur diyorum.
Beshikdagi allalar VATAN,
Sen dunyoda yagonam VATAN.

Barno MIRZAYEVA,
Samarqand viloyati, Urgut tumanidagi 118-umumta'lim maktabi o'qituvchisi

MAKTABIMIZ 1-O'RINDA!

O'quvchilar yuzida tabassum, qo'lida dasta gullar bilan maktab ostonasiga qadam qo'ydi.

Bayram tadbirlarida Urgut tuman hokimi M.Turdiyev maktabimiz bilan yaqindan tanishdi. Ustozlarning hamda bilim maskanini yangi o'quv yiliga tayyorligini ko'rib, quvondi. Ayniqsa, o'quvchilarning bilim darajasi yuqori ekanligidan yanada xursand bo'ldi va maktabimizga 1-o'rinni berdi. Sovg'a tariqasida tuman hokimligi tomonidan bilim

maskanimizga zamonaviy kompyuterlar taqdim etildi.

Bu yil ta'lim maskanimizga 97 nafar o'quvchi qabul qilinib, ularga Prezident sovg'alari topshirildi. Eng quvonarlisi, maktabimizdagi barcha ustozlar o'z kasbidan faxrlanib, yangi o'quv yilini ulkan rejalar bilan boshladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi Akrom Suyunov 1-«A» sinf o'quvchilarini qabul qilib oldi.



10-sentabr 2018

«Kim ko'p kitob o'qiydi?» Respublika an'anaviy tanloviga MUTOLAAGA HAVASIM BALAND

– Oyijonim maktabda kutubxonachi bo'lib ishlaydilar. Shu bois, kitobning inson uchun yaqin do'st ekanligini yaxshi bilaman.



Maktabimizda har yili «Kitoblari bayrami» ko'tarinki ruhda o'tkaziladi. Unda ota-onalar, homiy tashkilotlar, ustozlar va o'quvchilar ishtirok etib, maktabimiz kutubxona fondi uchun turli adabiyotlarni sovg'a qiladi.

Respublikamizda ilk bor o'tkazilgan «Yosh kitobxon» tanlovi g'olibasi olti yillik Sharofatxon Ismoilovning kitobga bo'lgan

qiziqishi jahon adabiyotining yetuk adibi Kristian Andersenning ertaklarini mutolaa qilish bilan boshlangan ekan. Shafaotxonning dadasi unga juda ko'p kitob sovg'a qilgani uchun o'z xonadonida oilaviy kutubxona tashkil etibdi. Men ham yozgi ta'tilda maktab kutubxonasidagi kitoblarni mazza qilib o'qib chiqdim. Kelajakda Sharofat opaday yetuk, bilimli kitobxon bo'lishga harakat qilaman.

Madina RAHIMJONOVA,
Farg'ona viloyati, Rishton tumanidagi 19-umumta'lim maktabining
3-«B» sinf o'quvchisi

«BOYLIKNI BOLALIKDAN ASRANG» TANLOVIGA



HISOBLAGICH NEGA ALMASHTIRILADI?

Zulayho maktabdan qaytdi. Tushlikka onasi shiringina sho'r'va tayyorlagan edi. Taomni ishtaha bilan yeyayotgan payt eshik taqilladi. Gulchehra opa «Kim bu?» deya ko'cha eshikni ochar ekan, «Opa, hisoblagichlarni tekshirib olaylik», degan ovoz eshitildi. Tekshiruvchilar hisoblagichlarni ko'zdan kechirishar ekan, ularning eskirib qolganini aytishdi. Kechki payt Zulayhoning dadasi ishdan qaytganida, oyisi bugungi voqeani aytib berdi. Ertasi kuni Qobil aka yangi hisoblagichlarni sotib olib, o'rnatirdi. Zulayho esa dadasini savolga tutdi:

– Dadajon, nega hisoblagichlarni almashtirdik? Eskisi ham ishlab turgan edi-ku?!

Qobil aka erinmay javob bera boshladi:

– Muddati tugagan yoki ishga yaroqsiz asboblarni noto'g'ri ishlaydi. Masalan, suv, elektr toki yoki gaz hisoblagichi ishdan chiqsa, hisobni kamaytirib o'lchashi mumkin. Natijada, biz bu ne'matlardan noqonuniy foydalangan bo'lamiz. Boshqacha aytganda, qarzdor bo'lib, nohalol ishlatgan hisoblanamiz.

Zulayho bosh iring'agancha:

– Tushundim, dadajon. Maktabda ham bizga ustozlarimiz bu ne'matlardan oqilona foydalanishni uqtirishadi. Men ham har doim ularni tejab ishlatishga harakat qilaman, – dedi.

Dadasi esa qizalog'ining aqlli va tejamkor ekanidan xursand bo'ldi.

Iqbolxon MUHAMMEDOVA,
Toshkent shahar, Yakkasaroy tumanidagi
73-umumta'lim maktabi o'quvchisi

Bilim insonni ulug'vor qiladi.

MUSTAQILLIK DARSI

Mushtariy uyqudan erta turib, onasiga sochlarini ikkita qilib o'rdirdi va chiroyli, oppoq lentalar taqib, maktabi tomon oshiqdi.

Poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 192-umumta'lim maktabida tantana bilan ilk qo'ng'iroq chalindi. Maktabda o'tgan birinchi kun, birinchi dars u uchun juda qiziqarli bo'ldi.

– Bu yil birinchi qo'ng'iroq tadbiri har yilgidan o'zgacha bo'ldi. Maktabimizga sobiq bitiruvchilar – O'zbekiston Adliya vazirligi xodimi Nasiba Nosirova hamda Shayxontohur tumani hokimiyati vakili Gulnoza Rahmonova va yana bir necha mehmonlar tashrif buyurdi. Ular o'z bolalik chog'larini eslab, o'quvchilarga so'zlab berdilar, – deydi 1-«B» sinf rahbari Dilnoza Hakimova.

Mana, o'quvchilar, orziqib kutgan maktab kunlarini ham boshlab yubordingiz. Tilagimiz, o'qib-o'rganib, ustozlarni xafa qilmasdan darslaringizni vaqtida bajarishga odatlaning va yil davomida bunga amal qiling.



– Prezidentimiz sovg'alarini o'qituvchimiz Dilnoza opa qo'lidan qabul qilib oldik.

Darsdan so'ng esa ustozimiz bilan maktab bo'ylab sayohat qildik, – deydi Abdug'affor Abdullayev.

Nigora ABDUNAZAROVA

EZGU TASHABBUS

Mustaqil yurtimizning baxtli bolalari sevimli bayramlari – Bilimlar kunini o'zgacha shukuh va quvonch bilan nishonlashdi. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining yurtimizdagi umumta'lim maktablari sobiq bitiruvchilariga qilgan murojaati esa qalblarida ezgulik jo'sh urayotgan ko'plab rahbar-u tadbirkorlarga ajoyib imkoniyat eshigini ochdi.

Maktabimizda o'tkazilgan ana shunday tadbirda viloyat Ichki ishlar boshqarmasi Yong'in xavfsizligi bo'lmi boshlig'i Odilbek Qo'ldashev, poytaxtdagi «Grant Ta'lim» o'quv markazi

ekan, yosh avlodni a'lo baholarga o'qib, ota-onalari orzusini ro'yobga chiqarishga chorladi. Mehmon Odilbek Qo'ldoshev esa ustozlar sabog'i tufayli hayotda o'z orzulariga yetayotganini ta'kidladi.



mas'ul xodimi Yodgorbek Azimov, Ichki ishlar xodimi Odilbek Sotvoldiyev, «GM-UZBEKISTAN» avtozavodi xodimi Odiljon Tojiboyev kabi ko'plab sobiq bitiruvchilar faol ishtirok etdi. Tadbirda Odilbek Sotvoldiyevning onasi, faxriy o'qituvchi Dilfuza opa bugun o'quvchilarga yaratilayotgan sharoitlar haqida to'lqinlanib so'zlar

O'z navbatida, mehmonlar va ota-onalar yangi tashabbus ko'rsatishga kelishib oldi. Ya'ni, endilikda a'lo baholarga o'qigan va na'munali xulqqa ega o'quvchilarga maxsus stipendiyalar berish rejalashtirildi. Bundan ruhlangan o'quvchilar esa iste'dod va iqtidorlarini namoyish etgan holda faqat puxta bilim olishga va'da berdi.

Avazbek TOJIBOYEV,
Andijon viloyati, Xo'jaobod tumanidagi 23-DIUM direktori,
Lutfulla NAZIROV,
5-umumta'lim maktabi direktori,
Dilorom IMINJONOVA,
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Qayerda ilm-u ma'rifat kuchli bo'lsa,
o'sha yer baxt maskani hisoblanadi.

QUVONCHLAR QANOTIDA

Yangi o'quv yili Yunusobod tumanidagi «Qadrdon» mahallasi o'quvchilariga quvonch olib keldi. Tumanning 17-mavzesida joylashgan 122-umumta'lim maktabi to'liq ta'mirdan chiqarilib, zamonaviy o'quv jihozlari bilan ta'minlandi.

Maktabning tantanali ochilish marosimi haqiqiy bayramga aylandi.

– Ta'lim dargohimiz bundan 35 yil muqaddam qurilgan bo'lib, ancha qarovsiz ahvolga kelib qolgan edi, – deydi maktab direktori Tohir Shermatov. – Ta'mirdan so'ng maktab yangi qiyofa kasb etdi. Nasib bo'lsa, ta'lim-tarbiya jarayonini yuqori bosqichga ko'taramiz. Bu yil birinchi sinfga 107 nafar o'quvchini vaffaqiyatlar tiladilar. qabul qildik.



Maktabning ochilish marosimida O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist Ashurali Jo'rayev, Yunusobod tuman xalq ta'limi bo'limi yetakchi mutaxassisi Hasan Rahmatov so'zga chiqib, yangi o'quv yili va yangi jihozlangan maktab bilan yig'ilganlarni samimiy qutladilar hamda o'quvchilarga Vatanimizning mard, jasur va bilimdon farzandlari bo'lib yetishishlarida ulkan mu-

Nigora JO'RAYEVA

MAQOM – YUKSAK TAFAKKUR MAHSULI

Joriy yil 6–10-sentabr kunlari ko'hna va qadim kent, uzoq o'tmishdan so'zlovchi qutlug' maskan – Shahrisabz shahri I Xalqaro Maqom san'at anjumaniga mezbonlik qildi.

Bayram munosabati bilan shahar butunlay o'zgacha qiyofa kasb etdi. Ko'chalar, bog'-u rog'lar, go'zal xiyobonlar obodonlashtirilib, yon-atrofga anvoyi gullar ekildi. Ayniqsa, Amir Temur xiyobonida qisqa muddat ichida amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari sabab, hudud tanib bo'lmas darajada chiroy ochdi. Oqsaroy atrofidagi maydonlarda yurtimizning barcha viloyatlari aholisining turmush tarzi, urf-odat va an'analari o'zida aks ettirgan go'zal shaharcha barpo etildi. Bu yerda tashkil etilgan folklor jamoalarining chiqishlari, konsert dasturlari uzoq-yaqindan kelgan chet ellik mehmonlarga xushkayfiyat bag'ishladi. Shuningdek, nufuzli san'at festivali sabab «Qarshi – Shahrisabz» yo'nalishida yuqori tezlikda harakatlanuvchi «Afrosiyob» elektr poyezdi qatnovi ham yo'lga qo'yildi.



I Xalqaro Maqom san'at anjumanida 29 davlat vakillari maqomning turli yo'nalishlarida o'zaro bellashdi. Hakamlar hay'ati qatnashchilarni «Eng yaxshi maqom ansambli», «Eng yaxshi yakkaxon cholg'u ijrochisi» va «Eng yaxshi yakkaxon xonanda» yo'nalishlarida baholab bordi. Shuningdek, anjuman doirasida o'tkazilgan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, yosh maqom ijrochilari tanlovi kabi bir-biridan qiziqarli tadbirlar chet ellik sayyohlarda katta taassurot qoldirdi.

S. TURSUNOV

Samarqand viloyatining Tayloq tumanidagi 14-umumta'lim maktabida ham 5-sentabr kuni tadbirlar xushkayfiyatda o'tdi. Ayniqsa, birinchi sinf o'quvchilarining hayajonini aytmaysizmi?!

SIZGA HAVAS QILAMIZ

Poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 254-umumta'lim maktabini bundan

Ta'lim-tarbiya olgan aziz maktabining nomi-yu dovrug'ini elga tanitishni kim ham istamaydi, deysiz?!



bir necha yil avval bitirgan o'quvchilar orasida bu orzuga erishgan insonlar talaygina. Ular bugun ustozlar ishon-

chini oqlab, el-yurt uchun xizmat qilmoqda. Eng quvonarlisi, bu yilgi birinchi qo'ng'iroq tadbirida ular o'z maktablarida mehmon bo'lib, bolajonlarga hayot yo'llari haqida so'zlab berdi. Ayniqsa, Chilonzor tumani Bosh prokurori Abdulhamid Komilovga barcha o'quvchilar havas qilishdi. O'z navbatida, mazkur sohani puxta egallash uchun bilim va mehnat-sevarlik lozimligini ham tushunib olishdi. Mehmonlardan yana biri, maktabning sobiq bitiruvchisi E'zozbek Rizayev esa

hozirda «Shohmed servis» xususiy klinikasining bosh shifokori ekan. Vatanning yanada gullab-yashnashi yo'lida mehnat qilish ham inson uchun bir baxt ekanini ta'kidlagan mehmon bolajonlarga yangi o'quv yilida omad tiladi.

Samimiy va ko'tarinki ruhda o'tgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirida, shuningdek, o'zbek yoshlari turli xalqaro olimpiadalarida yuqori natijalarni qo'lga kiritayotgani ta'kidlandi. Mazkur ta'lim maskanidan ham ana shunday yigit-qizlar yetishib chiqishini niyat qilgan ustozlar o'quvchilarga bor bilim va mehrillarini berishga tayyor ekanliklarini bildirishdi.

Abduhakim JO'RAYEV, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari

QO'SHALOQ BAYRAM BO'LDI

Davlat madhiyasi yangragach, tadbiri maktab direktori Z. Jabborova ochib berdi. Jonajon maktabi sari oshiqan o'quvchilarga bu yilda ko'plab muvaffaqiyatlar tiladi. Tadbirga tashrif buyurgan ichki ishlar xodimi Z. Xurramov, mahalla qo'mitasi raisi S. Boboyev, mehnat faxriylari M. Eshmatova, N. Toshtemirova, ota-onalar qo'mitasi raisi A. Baqoyev bolalarni bayram bilan qutladi. O'quvchilar tadbirga tayyorlab kelgan she'r-u qo'shiqlarini ijro etgach, 54 nafar 1-sinf o'quvchilariga Prezident sovg'alari topshirildi. So'ng, maktabning yoshlar yetakchisi Husnuda Ahmedova tomonidan 1-sinf o'quvchi-



lari «Kamalak» bolalar tashkilotiga a'zolikka qabul qilindilar. Bu esa ular uchun qo'shaloq bayramga aylandi.

– Oyim menga «Maktabda a'lo baholarga o'qish uchun Prezident sovg'asini olasan. Sen, albatta, unga munosib bo'lishing kerak», dedilar. Kitob, daftarlar, ayniqsa, rangli qalamlar menga juda yoqdi. «Mustaqillik darsi»da esa daftaringga bayrog'imiz rasmini chizdim va chiroyli qilib bo'yadim. Maktabda faqat a'lo baholarga o'qiyman, – deydi 1-sinf o'quvchisi Shaxboz Asrorov.

Ushbu bilim maskanida Shaxboz singari o'z oldiga ulkan maqsadlar qo'ygan o'quvchilar ko'p. Ularning yutuqlari haqida esa hali ko'p o'qiydiz.

Ozoda TURSUNBOYEVA

O'SHLIK O'QUVCHILARGA AJOYIB TUHFA

Bugungi kunda O'zbekiston va Qirg'iziston davlatlari o'rtasida ta'lim sohasidagi hamkorlik tobora kengayib bormoqda.

O'zbekistonda qirg'iz tili va madaniyati, Qirg'izistonda esa o'zbek tili va madaniyatini o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayni kunda mamlakatimizdagi 90 ta umumta'lim maktabida 7,5 mingga yaqin o'g'il-qiz qirg'iz tilida saboq olishi ikki davlat o'rtasidagi do'stlikdan darak beradi.



da o'zbekistonlik quruvchilar tomonidan barpo etilgan yangi maktab-gimnaziya-ning ochilish marosimi ham o'tkazildi.

Ta'lim maskani qurilishi Andijon viloyati hokimligi «Yagona buyurtmachi xizmati» injiniring kompaniyasi buyurtmasi asosida mamlakatimizning qator qurilish tashkilotlari tomonidan amalga oshirildi. Ahamiyatlisi, qurilish materiallari, uskuna va jihozlar O'zbekistondan keltirildi.



O'zbekiston hukumati tomonidan 18-maktab-gimnaziyaning yangi binosi qurib berilishi barobarida ta'lim muassasasiga 56 kompyuter, 33 televizor, 6 proyektor taqdim etilishi o'shlik o'quvchilarga ajoyib tuhfa bo'ldi.

Quvonarlisi, endilikda ota-onalarning taklif va istaklarini inobatga olib, maktab-gimnaziya o'zbek tilida qo'shimcha mashg'ulotlar tashkil etiladi.

Nurbek QIDIRALIYEV, Muhayyo MAMATOVA

O'sh shahrida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati raisi N.Yo'ldoshev rahbarligidagi mamlakatimiz parlamenti delegatsiyasining Qirg'iziston Respublikasi Jogorgu Kengeshi a'zolari bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi. Uchrashuv doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning topshirig'iga asosan, O'sh shahri-

Shahar markazida qad rostlagan Alisher Navoiy nomidagi 630 o'ringa mo'ljallangan uch qavatli maktab-gimnaziya keng o'quv va laboratoriya xonalari, katta tomosha sahnasiga ega faollar zali, sport zali, futbol maydoni, tibbiyot xonasi, 150 o'rinni oshxonaga ega. O'quv maskanining qariyb 1 gektar hududiga turli manzarali daraxtlar o'tqazildi.

Lesson 37

INGLIZ TILINI O'RGANAMIZ

FIRST DAY AT SCHOOL

Asila went to bed dreaming of the adventures that would take place the next morning. It would be her first day of school. Asila woke up early in the morning and get ready for the school. She hurried to the breakfast table where her breakfast was ready. She ate happily. She was very excited for the classroom activities. Alisa and her mother with father rushed to the stand where other kids were waiting for the bus. Kids talked about the fun they were going to experience at school. The bus stopped at the corner. All the kids climbed into the bus. Asila waved goodbye to her mother and father as she moved towards the bus. Asila's mother and father also waved her goodbye as she started for her school. They were excited too for their daughter. The bus stopped at the school after a short ride. The school was quite big. Kids were excited to see the school as they stepped out of the bus. All the children moved towards the entrance gate. *(To be continued).*



Painter: Yoqubbek HALIMBEKOV

PHONE TALK

Read and find the suitable answer.




1 Do you follow me?	A Iltimos, raqamni qayta terib yuboring.
2 Do you want to leave a message?	B Sizni telefonga so'rashyapti.
3 Can I take a message?	C Telefoningizdan qo'ng'iroq qilib olsam bo'ladimi?
4 I'll call you right back.	D Qattiqroq gapira olasizmi? Sizni eshitmayapman.
5 There is a telephone call for you.	E Meni eshityapsizmi?
6 May I use your phone?	F Xabar qoldirmoqchimisiz?
7 Please, dial again.	G Nima deb qo'yay?
8 Can you speak a bit louder? I can't hear you.	H O'zim sizga qo'ng'iroq qilaman.

1-E..., 2-..., 3-..., 4-..., 5-..., 6-..., 7-..., 8-...

STAGE OF LIFE

Look at the pictures and find the suitable stages of person.


toddler, adult, retired, teenager, young adult, baby, child, elderly.



Dinora ABDULLAJONOVA

SCHOOL CROSSWORD

Full fill with equipments.



Painter: Sumbula MELIMURODOVA

p	a	i	n	t	p	g	h	m	s
a	s	n	g	f	r	z	r	a	c
l	t	n	m	b	o	o	k	m	i
l	a	b	a	p	t	y	l	u	s
t	p	a	p	e	r	s	g	b	s
t	l	h	r	u	a	r	e	l	o
e	e	a	u	j	c	u	p	t	r
e	r	o	l	w	t	l	i	p	s
d	f	i	l	e	o	e	n	l	e
b	h	k	q	g	r	s	k	w	



Ma'mura G'ULOMOVA



Andijon viloyati, Baliqchi tumanidagi 12-Davlat ixtisoslashtirilgan internatda she'riyatga shaydo ijodkor o'quvchilar ko'p ekan. Gazetamiz-

ga yuborilgan she'rlarni ko'zdan kechirib, bunga guvoh bo'ldik. Viloyat Yozuvchilar uyushmasi qoshida tashkil etilgan «Yosh qalamkash» adabiy to'garagiga Barno Haydarova rahbarlik qilarkan.

Aziz o'quvchi! Biz Baliqchi tumanidagi she'riyat shaydolarining ijod namunalari siz ham bahramand bo'lishingizni istadik.



AXTAMQULI

SAL E'RJIYAT AYDOLAR

IKKI AZIZ INSON

Har tong turib qilaman ta'zim,
Ikki aziz inson poyida.
Aytaman bor mehri so'zim,
Budir menga oltin qoida.

Meni ko'rsa quvvar ko'zlari,
Meni desa berarlar jonin.
Mening uchun qonun so'zlari,
Ularga baxsh etarman borim.

Biri onam, biri padarim,
Ular borki, boshim ham osmon.
Boylıklarim, tengsiz gavharim,
Ikki dunyo bo'lishsin omon.

Ruxshona AHROROVA,
7-sinf o'quvchisi

BOBO, SIZNING O'RINGIZ BOSHQA

Uyga kirsam, huwillar har yon,
Sizni izlab boqay qay tomon?!
To'lib ketar ko'zlarim yoshga,
Bobo, sizning o'ringiz boshqa.

Qalbidagi siz bergan bahor,
Quyoshini kutar intizor.
Kirmadingiz to'qson, yuz yoshga,
Bobo, sizning o'ringiz boshqa.

Pandlaringiz menga bir kitob,
To'g'ri yur, deb aylaydi xitob.
Siz o'xshaysiz porloq quyoshga,
Bobo, sizning o'ringiz boshqa.

Madinabonu AHMEDOVA,
10-sinf o'quvchisi

HAYVONOT BOG'IDA

Mana hayvonot bog'i,
Hayvonlarning yotog'i.
Hovuzda suzar ayiq,
Go'yo kattakon qayiq.

O'ynar qoplon qafasda,
Ovqat izlar birpasda.
Filning xartumi uzun,
Yuguradi tun-u kun.

Anov bo'ydor jonivor,
Jirafa deb atalar.
Hayvonlarning eng zo'ri,
Deydi o'zini bo'ri.

Har bir hayvon bir olam,
Quvontirar ko'zlarni.
Mehrim jo'shib limmo-lim,
Yozdim ushbu so'zlarni.

Muhammadali SOHIBOV,
8-sinf o'quvchisi

«TEMURBEKLAR MAKTABI» TURKUMIDAN

Murod TILLAYEV

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda)

ORZUNING TUG'ILISHI

– O'zingning ham bo'ying cho'zilib qolibdi.
Nima balo, selitrani ustida uxlayapsanmi?

Ota kulib, aka-ukaning suhbatiga qo'shildi:
– Bo'yi-ku cho'zilyapti, lekin eniga ingichkashib ketyapti-da.

– Mashq qilish kerak, uka, – dedi Mardon.
– O'tir, darrov nonushta qilib ol. Bo'lmasa, darsingga kechikasan. Bugun havo sovuq, qalinroq kiyinib ol, – tayinladi jonsarak ovozda onasi.

Erkin otasi bilan akasining suhbatiga quloq tutib, nima yeb, nima ichganini ham bilmay qoldi. Ular esa nuqul harbiy bilim yurtining hayoti, u yerdagi qat'iy tartib-intizom haqida gaplashishardi. Maktabga ketayotib:

– Aka, tushdan keyin uyda bo'lasizmi? – deb so'radi.

– Ha, nimaydi? – unga yuzlandi akasi.

– O'zi...

– Maxfiy gapi bor ekan, harbiy sir, bitta o'zingga aytadi, – hazillashdi otasi.

– Qanaqa maxfiy gap ekan? Bunday tushuntiribrog' gapiringlar, – xavotir aralash tashvishlanib so'radi onasi.

– Qo'yaversang-chi, onasi. Aka-ukaning o'ziga yarasha siri bo'ladi, – uni tinchlantirdi otasi.

Shu kuni Erkin maktabda soat emas, daqiqa sanadi. O'qituvchilarning gapi ham unchalik qulog'iga kirmadi. Hatto ayrimlari «Xayoling qayoqda, Botirov?» deb tanbeh ham berishdi. Tezroq darslar tugasa-yu, uyiga qarab qanot chiqarib uchsa.

Nihoyat oxirgi dars tugaganidan darak berib qo'ng'iroq chalindi. O'qituvchi o'quvchilar bilan xayrlashib, sinfdan chiqishi bilan uning izidan Erkin birinchi bo'lib yugurib chiqdi.

Uyga kelsa, onasi ishda, otasi mahalla idorasida (u mahalla oqsoqoli) ekan. Akasi supadagi tushgacha yoqqan qorni kurayotgan edi. Erkin

darhol kiyimini almashtirib chiqib, kichikroq kurakni olib, akasiga yordamlasha boshladi.

– Avval choy-poy ichib olmasanmi? – dedi akasi.

– Hali qonim ochmadi. Keyin birga tushlik qilarmiz, – yolg'on javob qaytardi Erkin. Aslida esa akasining yolg'izligidan foydalanib ichidagi gapini aytib olmoqchi edi. Otasi kelib qolsa ulgurmasdi. Buni akasi ham sezdi. Shuning uchun o'zi so'radi:

– Xo'sh, menda nima gaping bor edi?

Erkin gapni nimadan boshlashini bilmay birpas kurakka suyanib turdi. Keyin tomdan tarasha tushganday:

– Men ham sizga o'xshab ofitser bo'lmoqchiman, – dedi.

Akasi ishdan to'xtamay bafurja javob qaytardi:

– Birinchidan, men hali ofitser emasman. Ikkinchidan, bunga otam nima derkanlar? Onang ikkimiz qariganimizda hayhotday hovliida so'ppayib qolamizmi, desalar-chi? Uchinchidan, eng asosiysi, harbiy bo'lish o'zingning qo'lingdan keladimi? Bu sen o'ylagandek oson ish emas. Buning uchun judayam irodali bo'lishing kerak. To'g'risi, o'zim ham birinchi kursdaligimda necha marta o'qishni tashlab ketmoqchi bo'ldim.

– Rostmi?
– Seni aldab nima qilaman. Jismoniy mashqlar. Harbiy mashg'ulo'lar, mashqlar. Turli naryadlar. Kerak bo'lsa, buyramlarni ham postda kutib olasan. Butun kuning oldinda rejalashtirilgan, taqsimlangan bo'ladi.

– Baribir harbiy bo'lish qiziq-da.
– Chetdan qaraganda qiziq, havas qilgudek, lekin aslida judayam mashaqqatli kasb. Shuning uchun senga bir maslahat: ertadan o'zing kuningni rejalashtirib ol. Keyin shu rejaга roya

etishga harakat qil. Xohlasang, o'zim senga kun tartibini tuzishga yordam beraman.

– Rahmat, aka.

– Rahmat aytishga hali erta. Chunki uni ba-



jarishingga yordam berishimdan umid qilma. Agar bu ish qo'lingdan kelsa, kelasi yili to'qqizinchi sinfni tugatganingdan keyin «Temurbeklar maktabi»ga kirib o'qi. Uni bitirganingdan keyin ham niyatingdan qaytmasang, marhamat, o'zing istagan, qiziqqan harbiy bilim yurtiga hujjat topshirasan. Bordi-yu niyatingdan qaytsang fuqarolik oliy o'quv yurtiga kirishga harakat qilib ko'rasan. Ma'qulmi?

– Ma'qul. Otamga niyatimni qachon aytay?
– O'zing bilasan. Menimcha, hali erta. Qolaversa, agar kun tartibiga roya eta olsang, yurish-turishingdagi o'zgarishni ko'rib, o'zlarini ham nima gapligini anglas oladilar.

(Davomi bor)

ENG OBOD MASKAN

Azis o'quvchim! Yurtimizda to'qqiz mingdan ziyod maktab borligini yaxshi bilasis. Ular ichida «Eng obod ta'lim muassasasi» nomiga sazovor bo'lgan maktab faoliyati kimni ham qiziqirtirmaydi, deysiz?! Bu maskanda qanday ishlar amalga oshirilgan ekanki, o'quv dargohi «Eng obod ta'lim muassasasi - 2018» ko'rik-tanlovida 1-o'ringa loyiq topildi. Bugun biz sizga mazkur muassasa haqida hikoya qilamiz.

Go'zal Surxon diyori, Termiziy bobomiz tug'ilgan obod go'shada joylashgan 4-Davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktab-internatiga kirib borar ekansiz, buyuk ajdodimiz al-Xorazmiyning monumentiga ko'zingiz tushadi. Rang-barang gullar va manzarali daraxtlar ekotik landshaftni hosil qilgan. Maktab hovlisiga minglab archa, qarag'ay, terak, yapon saforasi kabi manzarali, olma, shaftoli, bodom, jiyda, uzum, o'rik, behi kabi mevali daraxtlar ekilgan.

Zamonaviy qiyofadagi muassasa 315 o'rinni o'quv korpusi, 100 o'rinni yotoqxonaga, oshxonaga, sport zali va zamonaviy bolalar futbol maydonchasi, 2 ta issiqxonaga ega. Maktab davlat dasturi hamda Yaponiya granti asosida mebel jihozlari, zamonaviy o'quv-laboratoriya asbob-uskunalarini, kompyuter hamda sport anjomlari bilan to'liq jihozlangan. Bu ma'lumotlarni o'qiy turib, «Ha, bejizga bu maktab ilg'or ta'lim maskani emas ekan-da», deyishga shoshilmang. Axir mehnat va tashabbusiz hech qanday yutuqqa erishib bo'lmaydi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bilim dargohida byudjetdan tashqari mablag' topish bo'yicha ham bir talay ishlar qilingan. Birgina maktab hovlisida tashkil etilgan issiqxonalarda bu yil 60 tup limon ko'chati, pomidor va bulg'or qalampir yetishtirilmoqda.

Ikkinchi issiqxonaga esa mavsumiy gullar ekilgan. Quvonarlisi, ular maktab-internati hovlisini bezab turibdi.

Obod muassasaning yana bir qancha o'ziga xos jihatlari bor. «Otanalar bilan muloqot xonasi», «Maktab-internati tarixi muzeyi», «Bitiruvchilar» va «Ustozlar» bog'i, nazorat punkti kabilar shular jumlasidan.

Ana endi shuncha ishlarni amalga oshirayotgan tashabbuskor ustozlar haqida ham o'xtalib



o'tsak. Maktab-internati direktori, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati a'zosi, O'zbekiston xalq o'qituvchisi, «Fidokorona xizmatlari uchun» ordeni sohibasi Shohida opa Aripova bu kabi xayrli ishlarga bosh-qosh. Ularga esa ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinsosari Saodat Qarshiyeva, shuningdek, Nortoji Usanov va Abduxannon Tursunboyev har ishda ko'makchi. Mehnatkash xo'jalik ishlari mudiri Abdurasul Berdiyev, jonkuyar bosh tarbiyachi Bahrom Ahatov, o'quvchilar bilan do'st tutingan tarbiyachi Azizbek Mashrabov, Gulsunoy Qurbonova va matematika fani o'qituvchisi Nodira Dautova, Mahfuza Boboyeva, Abdulkosim Abdullayevlar esa o'z ishinin ustalari.

Ta'lim maskani o'quvchilari obod maktablariga kelishlari bilan yuqoridagi manzara va sharoitlardan bahri dillari ochilib, faxr tuyg'usini his etishadi. Axir hammaga ham bunday bilim maskanida o'qish nasib etavermaydi-da!

Sayyora QODIROVA



Yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida Toshkent viloyati, Bo'stonliq tumanida joylashgan «Yoshlar oromgohi»da mahallalar yoshlari o'rtasida yo'l to'sig'idan o'tish bo'yicha «Mega sport» musobaqasi o'tkazildi.

OQQO'RG'ONLIKLAR G'OLIB

14 viloyatdan 10 nafardan jami 140 nafar mahalla yoshlari ishtirok etgan mazkur musobaqada 1-o'rin Toshkent viloyati, Oqqo'rg'on tumani, «To'laovul» mahalla fuqarolar yig'ini vakillariga nasib etdi. Sirdaryo viloyati, Guliston shahridagi «Namuna» mahallasi yoshlari 2-, Namangan viloyati, Norin tumani, «Obod» mahalla jamoasi 3-o'ringa loyiq topildi.

O'zbekiston yoshlar ittifoqi, O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport, Madaniyat, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar, Sog'liqni saqlash vazirliklari, O'zbekiston mudofaasiga ko'maklashuvchi «Vatanparvar» tashkiloti Markaziy Kengashi, «Yaks future product» MCHJ hamkorligida tashkil etilgan ushbu musobaqa minalakali hakamlar tomonidan kuzatib borildi.

G'olib jamoalar O'zbekiston yoshlar ittifoqi hamda homiy tashkilotlarning diplom, faxriy yorliq va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Muhammadsodiq ALIMOV

SHASHKACHILARIMIZ JAHON CEMPIONLARI SAFIDA

Yaqinda mamlakatimiz yosh shashkachilari Bolgariya-da yoshlar o'rtasida bo'lib o'tgan 64 katakli shashka bo'yicha jahon chempionatida ishtirok etishdi.

Sakkiz yoshli sportchimiz Mavluda Mahmudova rapid yo'nalishida 1-o'rinni egallab, klassik yo'nalishda uchinchi o'ringa loyiq topildi. Ozodbek O'rmonaliyev esa 14 yoshgacha bo'lgan bolalar o'rtasidagi rapid yo'nalishi bahslarida oltin medalni qo'lga kiritgan bo'lsa, klassik yo'nalishda kumush medal bilan taqdirlandi. Blits yo'nalishi bo'yicha o'tgan bellashuvda esa shohsupaning eng yuqori pog'onasidan joy oldi.

Samira Qahhorova blits yo'nalishi bahslarida g'oliblikni qo'lga kiritdi. S. Qahhorova hamda Shahzoda Tursunmurodova 8 va 20 yoshli shashkachilar o'rtasidagi bahslarda kumush medal sohibiga aylanishdi.

Shahzoda Fayzullayeva, Fitrat Olimovlar klassik yo'nalishda o'z yosh toifalarida bronza medali bilan taqdirlandi.

Sakkiz yoshli shashkachilar o'rtasidagi bahslarda M. Mahmudova va F. Olimov kumush, o'n bir yoshlilar orasida Sh. Fayzullayeva bronza medaliga sazovor bo'ldi.

Shohruh MUSAYEV



AZIZ VA YAGONAMSAN, JONAJON O'ZBEKISTONIM!

Toshkent shahar, Olmazor tumanidagi 569-MTMda yurtimiz mustaqilligining 27 yilligiga bag'ishlab «Aziz va yagonamsan, jonajon O'zbekistonim!» shiori ostida bayram tadbiri bo'lib o'tdi.

Bayramona bezatilgan maskanda karnay-surnay sadolari yangradi.

raqsga tushdi. Kutilmaganda bayramga bolajonlarni tabriklash uchun Nasriddin Afandi tashrif buyurdi. U viloyatlar bo'ylab barcha bolalarni bayram bilan qutlab yurganini aytdi. Bolajonlar Afandining safar taassurotlarini miriqib tinglashdi.

Bayramda «Zumradoylar» to'garagi a'zolari «Do'ppi tikdim» raqsini ijro etishdi. Tadbir ommaviy raqs bilan yakunlandi.

Iqbol MALIKOVA



Tadbirda bolajonlar Vatan haqida qo'shiqlar kuylashdi, yod olgan she'rlaridan aytishdi. Kichkintoylar

Pazanda qiz.



Qovoqchalar (kabachki) ovqatingizga xushta'm bag'ishlashi bilan birga, organizm uchun foydali, vitaminlarga boy sabzavot hisoblanadi. Bugun ana shu mahsulotdan kotlet tayyorlashni o'rganamiz.

QOVOQCHALARDAN AJOYIB KOTLET



Kerakli mahsulotlar: 4-5 ta qovoqcha, 300 gramm qiyma, 1 dona kartoshka, 1 dona piyoz, 1 dona tuxum, yarim stakan un, tuz.

Tayyorlanishi: qovoqchalar, kartoshka, piyoz tozalanib, qirg'ichdan o'tkaziladi. Suvi silqib olingach, ustiga qiyma, un, tuxum, tuz solib aralashtiriladi. So'ngra, kotlet shakliga keltirilib, gazda pastroq olovda ikki tarafi qizartirib olinadi.

UY TOZALASHDA ASQOTADIGAN TAVSIYALAR

Ko'pchiligimiz uy tozalashni zerikarli va ko'p vaqt oladigan mashg'ulot deb hisoblaymiz. Biroq ba'zi usullar borki, ular ushbu jarayonni ancha yengil-lashtiradi.

GILAMDAGI KIR DOG'INI KETKAZISH UCHUN...

Osh sodasini biroz suv bilan aralashtirib, pasta hosil qiling va uni gilamning kirlangan joyiga suring. Kechasi bilan shu holda qoldirib, ertasi kuni changyutgich bilan tozalab olishingiz mumkin.

Yana bir usul: gilamdagi dog'ga suv (2/3) va sirka (1/3) aralashmasini suring. So'ng, o'sha joyni ho'l latta bilan yopib, ustidan dazmol yugurtiring.

CHARMDAN QILINGAN JIHOZ ESKIRIB QOLGAN BO'LSA...

Uni poyabzal uchun mo'ljallangan oddiy krem yordamida ishqalab artib chiqing. Ana shunda timalishdan hosil bo'lgan izlar shu zahotiyog' yo'qoladi.

KO'RPA-TO'SHAKLARNI TOZALASH UCHUN...

Purkagichi bor idishga biroz spirt soling va uni to'shakning butun yuzasiga sepib chiqing. To'shakni ochiq havoda quriting. Spirt yoqimsiz hid taratadigan barcha bakteriyalarni o'ldiradi.

IDISH-TOVOQ YUVUVCHI GUBKANI TOZALASH UCHUN...

Gubkani mikroto'qinli pechga bir necha daqiqaga qo'yib oling. Bu zararli bakteriyalarning 99 foiz yo'q bo'lishiga yordam beradi.

YOG'LI DOG'NI KETKAZISH UCHUN...

Kiyimingizga yog' tomsa, o'sha joyga oddiy oq bo'rdan suring. Bo'zini nam latta bilan artib tashlang.

YUMSHOQ MEBELNI TOZALASH UCHUN...

Divan yuzasiga spirtli aralashmani seping va yumshoq gubka bilan artib chiqing. Shundan so'ng, qolgan kirni ketkazish uchun qattiq cho'tkadan foydalaning.

BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIR!

«OT»LI SO'ZLAR O'YINI

Berilgan so'zlarning oldiga, o'rtasiga yoki oxiriga «ot»ni qo'shib yana bir so'z hosil qiling va bo'sh qatorlarga yozish bilan topqirligingizni sinab ko'ring.

B	A	S	+	O	T	=			
K	A	P	+	O	T	=			
Q	I	N	+	O	T	=			
L	I	Q	+	O	T	=			
R	O	M	+	O	T	=			
B	I	R	+	O	T	=			
N	I	L	+	O	T	=			
T	U	S	H	+	O	T	=		
T	I	M	+	O	T	=			
D	O	V	+	O	T	=			
B	O	R	+	O	T	=			

Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV

NARGIZA tayyorladi